

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI VA  
ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

70

Andijon mashinasozlik instituti  
“Iqtisodiyot” kafedrası professorı,  
iqtisod fanlari doktori Qiyomiddin  
Muftaydinovning 70 yillik yubileyiga  
bag‘ishlangan

**“ERKIN BOZOR MEXANIZMLARINI JORIY  
ETISH HAMDA SOG‘LOM RAQOBAT MUHITINI  
YARATISH ORQALI HUDUDLARDA  
TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH  
ISTIQBOLLARI”**

mavzusida respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy  
anjuman konferensiya **materiallari**

2023-yil 4-mart

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI VA  
ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI**

**“ERKIN BOZOR MEKANIZMLARINI JORIY ETISH HAMDA  
SOG’LOM RAQOBAT MUHITINI YARATISH ORQALI  
HUDUDLARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH  
ISTIQBOLLARI” mavzusida respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman  
ILMIY MAQOLALAR VA TEZISLAR TO’PLAMI**  
4 mart 2023 yil

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И  
ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН  
АНДИЖАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ И  
АНДИЖАНСКИЙ МАШИНОСТРОИТЕЛЬНЫЙ ИНСТИТУТ**

**СБОРНИК НАУЧНЫХ СТАТЕЙ И ТЕЗИСЫ**  
Республиканская научно-практическая конференция на тему  
**«ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В  
РЕГИОНАХ ПУТЕМ РЕАЛИЗАЦИИ МЕХАНИЗМОВ  
СВОБОДНОГО РЫНКА И СОЗДАНИЯ ЗДОРОВОЙ  
КОНКУРЕНТНОЙ СРЕДЫ»**  
4 марта 2023 года

**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF  
THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN  
ANDIJAN STATE UNIVERSITY AND  
ANDIJAN MACHINE-BUILDING INSTITUTE**

**COLLECTION OF SCIENTIFIC ARTICLES AND ABSTRACTS**  
Republican scientific and practical conference on the topic  
**"PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP IN  
THE REGIONS BY IMPLEMENTING THE MECHANISMS OF A FREE  
MARKET AND CREATING A HEALTHY COMPETITIVE  
ENVIRONMENT"**  
March 4, 2023

**ANDIJON – 2023**


	(Самарқанд вилояти мисолида)	
В.Ғ.Абдурахмонов, Д.Б. Эралиев	Агросаноат маҳсулотлари экспортида логистик хизматлар салоҳиятини ўзига хос хусусиятлари	636
S.K.Hamidov	Turistik destinatsiya faoliyatini hududiy resurs salohiyatini innovatsion boshqarish uslubiyotini takomillashtirish	640
S.K.Hamidov	Turistik destinatsiya faoliyatini boshqarish jarayonlarini takomillashtirish	644
N.R.Tojiboyeva, T.G'.Yokubov, E.M.Sotvoldiyev	O'zbekistonda meva-sabzavotchilik tarmog'ini rivojlantirishda agroklastor korxonalarini va uning boshqaruvini takomillashtirish masalalari.	647
З.С.Умурзакова, Д.Д.Асилбеков	Саноат корхоналарида фойдани шакллантириш ва ундан самарали фойдаланиш йўллари	652
D.B.Eshpulatov	Hududlarni rivojlantirish va ular orasidagi iqtisodiy tengsizlikni qisqartirish. Qishloq hududlarini rivojlantirishda ular orasidagi iqtisodiy tengsizlik darajasini baholash	653
Z.A.Fazliddinova	Namangan viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini gat texnologiyalari yordamida tahlili	656
М.Ғ.Маҳмудов, С.М.Аъзамов	Худудларда саноатни барқарор ривожлантириш омиллари	659
М.Ғ.Маҳмудов, М.М.Бустонов	Қашқадарё вилоятида саноат ишлаб чиқариш салоҳиятининг ҳолати	663
А. С. Кучаров, А.Б.Бобожонов, А.Б.Бобожонов	Цифровизация логистических маркетинговых систем субъектов бизнеса	669
Ш.Ш.Туйчиев	Организация управление логистикой вагонопотока для перевозки продуктов предприятия	671
N.J.Xalimova	Turizmда ijtimoiy mediadan foydalanishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari	676
M.Sh.Ashurova	Buxoro destinatsiyasidagi turoperatorlar faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar	680
G.A.Zufarova, A.Vaxodirov	Hududlarda sanoat korxonasining iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari	683
Ф.К.Саидова, Д.Буранов	Худудлар иқтисодиётида саноат тармоғининг ривожланишини статистик таҳлили	685
Ш.Д.Сайитбоев, Б.Б.Мирзахаликов	Кичик бизнес субъектларининг молиявий-иқтисодий барқарорлигини кредитлаш тизими орқали қўллаб-қувватлашни такомиллаштириш	689
T.Қутибоев	Ишчи кучи сифати инсон капиталининг асосий элементи сифатида	694
F.Inamov	Kichik va o'rta korxonalarda tadbirkorlik marketingining strategik roli	696
I.A.Бобаев	Тадбиркорликни ривожлантиришда аҳоли фаровонлигини ошириш йўналишлари	699
M.Ш.Ахмедов	Корхоналарда персонални самарали бошқаришда мотивацион назарияларнинг ўрни	702
Ф.Р.Холбекова	Макроиқтисодий барқарорликни таъминлашда	706

## TURIZMDA IJTIMOY MEDIADAN FOYDALANISHNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASH YO'NALISHLARI

Xalimova Nigina Jafarbekovna

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

Hozirgi kunda O'zbekistonning barcha turistik destinatsiyalari salohiyatidan samarali foydalanish maqsadida turli xildagi turizm turlarini rivojlanishga davlat tomonidan katta e'tibor berilmoqda. Ushbu turizm turlarini sotish ham davlat siyosati darajasida olib borilmoqda. O'zbekiston respublikasi prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi № PF-5326-sonli farmoni asosida 76 ta mamlakat fuqarolari uchun turizm vizalarini rasmiylashtirishning soddalashtirilgan tartibi joriy etilishi, shuningdek, 2018-yil 10-fevraldan boshlab Isroil davlati, Indoneziya Respublikasi, Koreya Respublikasi, Malayziya, Singapur Respublikasi, Turkiya Respublikasi va Yaponiya fuqarolari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasiga muntazam aviaqatnovlarni amalga oshiruvchi xorijiy aviakompaniyalar havo kemalari ekipajining a'zolari uchun O'zbekiston Respublikasi hududiga kirgan kundan e'tiboran 30 kunlik muddatga vizasiz rejim belgilanishi buning yaqqol isboti bo'lishi mumkin. Turistik destinatsiyalarning sayohatchilar tashrif buyurish ehtimolini oshirish uchun esa, birinchi navbatda ularning ushbu joy salohiyati haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lishini ta'minlash kerak. XXI asrda esa buni internet, ayni damda ijtimoiy media orqali tasavvur qilish qiyin.



**1-Shakl.** 2022-yil iyul holatiga ko'ra butun dunyo bo'ylab internet va ijtimoiy media foydalanuvchilari soni

**Manba:** <https://www.statista.com/statistics/617136/digital-population-worldwide/>

2022-yil aprel holatiga ko'ra, butun dunyo bo'ylab besh milliarddan ortiq internet foydalanuvchisi mavjud bo'lib, ushbu ko'rsatkich shu paytdagi statistikaga ko'ra dunyo aholisining 63,1 foizini tashkil qilgan. Bundan tashqari, insonlarning 4,7 milliard yoki dunyo aholisining 59 foizi ijtimoiy mediadan foydalanuvchilar soniga tengdir. Ushbu ko'rsatkichlardan ko'rinib turibdi-ki, dunyo aholisining yarmidan ko'p qismi internet tarmog'idan, ayni damda ijtimoiy mediadan foydalanadigan bir paytda sayohat dunyosida ham mamlakatlarning turistik potensialini ushbu media vositalari orqali yoritib borilishi turistlarning ushbu mamlakatlarga bo'lgan tashrif buyurish moyilligini yanada oshirishga hissa qo'shadi. Ushbu masalaning dolzarbligini mamlakatimiz prezidentining farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi "Milliy turizm mahsulotini targ'ib qilish markazi" DUK O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi "Milliy PR-markazi" DUK etib qayta tashkil etilishi, unga respublikaning turizm salohiyatini targ'ib qilishni tashkil etish bo'yicha vazifalar yuklatilishi, shuningdek, "Milliy PR-markazi" DUK uchun zamonaviy va



#### **4-Seksiya. Hududlarni rivojlantirish va ular orasidagi iqtisodiy tengsizlikni qisqartirish masalalari**

yuqori texnologik suratga olish uskunalari, avtotransport vositalari, shu jumladan, yuqori o'tish qobiliyatiga ega bo'lgan avtotransport vositalarini sotib olishni o'z ichiga oluvchi zaruriy moddiy-texnik bazasi yaratilishi, shuningdek, ijara to'lovsiz zaruriy xonalar ajratilishi hamda ijodiy va suratga olish guruhlarini, shu jumladan, xorijiy mutaxassislarni jalb qilish yo'li bilan shakllantirish, ularni ta'minlash va moddiy rag'batlantirish uchun zaruriy mablag'lar ajratilishini shakllantirilgan ijodiy va suratga olish guruhlarining ssenariylar va suratga olish ishlari konsepsiyasini ishlab chiqilishi, respublika hududlariga ijodiy ekspeditsiyalar va xizmat safarlari, shuningdek, mamlakatning turizm salohiyatini targ'ib qilish bo'yicha materiallarni tayyorlaydigan boshqa ijodiy guruhlar faoliyatini doimiy asosda, shu jumladan autsorsing orqali moliyalashtirilishini ta'minlanishida ko'rishimiz mumkin[6].

Milliy PR-markaz hozirgi kunda O'zbekistonning turistik salohiyatini ijtimoiy medianing bir necha turlari orqali, shu jumladan, Facebook, Instagram, Pinterest, Telegram, Youtube hamda Twitter orqali yoritib, o'z kuzatuvchilarini muntazam turistik destinatsiyalarning go'zal qadamjolari haqida xabardor qilib boradi. Barcha ijtimoiy media vositalari hamda O'zbekistonning turistik vebsayti [uzbekistan.travel](http://uzbekistan.travel) brendi ostida faoliyat olib boriladi. [Uzbekistan.travel](http://Uzbekistan.travel) rasmiy vebsayti hozirgi kunda 11 tilda faoliyat yuritib, mamlakatning barcha shaharlari, diqqatga sazovor joylar hamda O'zbekistondagi mavjud turizm turlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ijtimoiy media orqali yoritiladigan ma'lumotlar maxsus kontent reja orali amalga oshirilib, aniq vaqt bo'yicha e'lon qilinib boriladi. Kontent – bu ijtimoiy mediada yoritiladigan mavzu. Kontent reja esa ushbu mavzuga aloqador bo'lgan bir nechta turdagi g'oyalar ro'yxati. Ijtimoiy media uchun tuziladigan kontent reja turistik destinatsiyalarda aniq maqsadga erishish yo'lida amalga oshiriladi. Masalan, e'lon qilingan postlar evaziga bir oyda 1000 ta kuzatuvchi yig'ish, turistik destinatsiyada mavjud diqqatga sazovor joylar haqida ko'proq ma'lumot berish, turistik brendni tanitish, sayyohlar xabardorligini oshirish, turistlar yashrif buyurish moyilligini oshirish va hokazo. Ushbu kontent rejaning asosini kuzatuvchilar uchun qiymatli bo'lish, dolzarblik, o'ziga xoslik hamda tushunish uchun oson va qulaylik tashkil etadi. Milliy PR-markaz tomonidan tuziladigan kontent reja 1 haftalik tuziladi va haftaning har juma kunida yangilanib, tasdiqdan o'tishi lozim. Har bir postga 3 tildagi izoh, ya'ni ingliz, rus hamda o'zbek tillarida amalga oshiriladi.

4-Seksiya. Hududlarni rivojlantirish va ular orasidagi iqtisodiy tengsizlikni qisqartirish masalalari

**1-Jadval. Telegram kanalining 27.06.2022 dagi nashr qilish rejasi**

Sana	Post	Rasm
<p><b>Du</b> <b>27.06</b> <b>9:15</b></p>	<p>Музей «Памяти жертв репрессий» - по истине уникальное место, в котором можно узнать о том, как боролись жители Туркестана за свободу и независимость своей Родины</p> <p>“Qatag'on qurbonlari хотirasi” muzeyi chinakam noyob maskan bo'lib, unda Turkiston xalqi o'z vatani ozodligi va mustaqilligi uchun qanday kurashganligi haqida ma'lumotga ega bo'lishingiz mumkin.</p> <p>Museum "In Memory of the Victims of Repression" is a truly unique place where you can learn about how the people of Turkestan fought for the freedom and independence of their homeland</p>	
<p><b>13:40</b></p>	<p>Intervyu</p>	
<p><b>18:15</b></p>	<p><u>Islom va tasavvufda hurmatli shaxs – Uvays ibn Amir al-Qoraxoniy sharafiga qurilgan majmua (Namangan viloyati).</u> <a href="https://uzbekistan.travel/uz/o/sulton-uvays-qaroniy-majmuasi/">https://uzbekistan.travel/uz/o/sulton-uvays-qaroniy-majmuasi/</a></p> <p>Комплекс Султан Увайс Карани (Наманганская область), построен в честь уважаемого в исламе и суфизме человека – Увайса ибн Амира аль-Карани</p> <p><a href="https://uzbekistan.travel/ru/o/kompleks-sultan-uvajs-karani/">https://uzbekistan.travel/ru/o/kompleks-sultan-uvajs-karani/</a></p> <p>Sultan Uvays Karani complex (Namangan region), built in honor of a respected person in Islam and Sufism - Uvays ibn Amir al-Karani</p> <p><a href="https://uzbekistan.travel/en/o/memorial-complex-sultan-uwais-karani/">https://uzbekistan.travel/en/o/memorial-complex-sultan-uwais-karani/</a></p>	

**Manba: Milliy PR-markaz ma'lumotlari asosida.**

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdi-ki, Telegram tarmog'ida milliy PR-Markaz tomonidan e'lon qilib boriladigan postlar butun O'zbekiston turistik salohiyatini namoyon qilib boradi hamda bir kunda postlar soni 3 taga teng va 3 tilda sharhlanadi. Ushbu postlar tarkibida intervyu ham mavjud bo'lib, uning ikkita asosiy maqsadi

#### 4-Seksiya. Hududlarni rivojlantirish va ular orasidagi iqtisodiy tengsizlikni qisqartirish masalalari

mavjud: ko'ngil ochish orqali profilni kengaytirish hamda ushbu kanal egasiga qandaydir foyda keltirish. Ijtimoiy mediada intervyu asosan kuzatuvchilarni xursand qilish uchun biror qiyinchilik darajasiga ega bo'lmagan savollar bilan murojaat qilish yoki qaysidir sohada ularning darajasini tekshirish imkonini beradi. Turistik destinatsiyalarni namoyon qiluvchi ijtimoiy media sahifalarida intervyular quyidagi ko'rinishda olib boriladi:

- Biror manzilgohga yetib borish mumkin bo'lgan yo'llar ko'rsatkichi;
- Turistik diqqatga sazovor joyning qaysi hududda joylashganligi;
- She'r satrlarini sanab, javob variantlari bilan kimga tegishli ekanligini so'rash va hokazo.

Uzbekistan.travel sahifasi orqali olib boriladigan intervyularga misol qilib quyidagi so'rovnomani aytishmumkin: “Afsonaga ko'ra, bu qal'a buqa terisi ustiga qurilgan. Qaysi qal'a haqida so'z bormoqda? Javoblar: Xivadagi ko'hna Ark qal'asi; Buxorodagi Ark qal'asi; Qadimgi Termezning Qal'a devorlari.”

**Xulosa.** Milliy PR-Markaz tomonidan berilgan ma'lumotlar asosida O'zbekiston turistik destinatsiyalarining ijtimoiy media vositalaridagi faoliyatida quyidagi kamchiliklar aniqlandi:

- ijtimoiy mediada uzbekistan.travel nomi ostida mamlakatda mavjud barcha diqqatga sazovor joylar umumiy ko'rsatilib, ular haqidagi ma'lumotlar qisman yoritilgan. ma'lumotlar aniq mavzulashtirilmagan va o'zbekistonning har bir turistik destinatsiyasi uchun viloyatlar kesimida akkauntlar yaratilmagan.
- keltirilgan ma'lumotlar aniq bir maqsadli auditoriyaga qaratilmagan va maqsadli reklamadan unumli foydalanilmaydi. umumiy ko'rinishda keltirilgan ma'lumotlar ichidan bir nechta bozorga mos keladigani tanlanib, maqsadli reklamaga beriladi.
- kontent reja bir haftalik tuzilib, aniq qoidalarga bo'y sunmaydi. ma'lumotlar betartib keltirilib, aniq bir turistik destinatsiya va mavzuga proporsional olinmagan. kontent rejada mavzular bo'linmasi inobatga olinmagan. rejalashtirilgan post kuni va vaqti o'zgarish ehtimoli katta.
- ijtimoiy mediada aniq bir strategiya bo'yicha ish olib borilmaydi.
- postlar mavjud rasm hamda videoroliklar bazasidan tayyorlanadi. yangi turdagi kreativ kontent uchun yangi materiallar tayyorlanmaydi va ijtimoiy media trendlari mavjud emas.
- instagram tarmog'idagi “aktual hikoyalar” to'ldirilmagan va biror ma'lumotga ega emas.
- yangi turistlarni jalb qilishning turli yo'llaridan, ya'ni, ijtimoiy mediada bepul hamda pullik reklama usullaridan foydalanilmaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Manning, J. (2014.) Social media, definition and classes of. In K. Harvey (Ed.), Encyclopedia of social media and politics (pp. 1158-1162). Thousand Oaks, CA: Sage.

2. Kietzmann, J. H., Hermkens, K., McCarthy, I. P., & Silvestre, B. S. (2011). Social media? Get serious! Understanding the functional building blocks of social media. Business horizons, 54(3), 241-251.

#### 4-Seksiya. Hududlarni rivojlantirish va ular orasidagi iqtisodiy tengsizlikni qisqartirish masalalari

3. Trottier, D., & Fuchs, C. (2015). Social media, politics and the state. Protests, Revolutions, Riots, Crime and Policing in the Age of Facebook, Twitter and YouTube. New York and London: Routledge.

4. Xalimova, N. J. (2021). IJTIMOVIY MEDIANI SHAKLLANTIRUVCHI FUNKSIONAL BLOKLAR VA ULARNING VIRTUAL DUNYODA QO'LLANILISHI. "Экономика и туризм" международный научно-инновационной журнал, 2(2).

5. Khalimova N.J. (2022). ANALYSIS OF INSTAGRAM ACTIVITY OF LEADING TOURISM DESTINATIONS. Journal of Management Value & Ethics.

6. <https://lex.uz/ru/docs/-3548467>

### BUXORO DESTINATSIYASIDAGI TUROPERATORLAR FAOLIYATIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR


**Ashurova Maftuna Sharifovna**

Buxoro davlat universiteti, magistr

Buxoro O'zbekistonning janubi-g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, hududining katta qismini Qizilqum cho'li egallaydi. Turkmaniston, Xorazm, Navoiy va Qashqadaryo viloyatlari, Qoraqalpog'iston Muxtor Respublikasi bilan chegaradosh.

Viloyatning maydoni 39,400 km<sup>2</sup>. Ma'muriy markazi — Buxoro shahri. Viloyat hududi cho'l tekisligi, alohida adirlari bor, hududining 90% dan ortig'ini Qizilqum qumlari egallagan, faqat janubda, Zarafshonning quyi oqimida kichik, sug'oriladigan vohalar – G'ijduvon, Buxoro va Qorako'l. Iqlimi cho'l, keskin kontinental. Qish juda qattiq, yoz issiq va quruq. Suv resurslari cheklangan.

2018-2022 yillar orasida Buxoro destinasiyalariga turistik kompaniyalar orqali va Individual tartibda kelgan sayyoylar statistikasini quyidagi grafikda ko'rishimiz mumkin (1-chizma).



**1-chizma. Buxoro destinasiyalariga turistik kompaniyalar orqali va Individual tartibda kelgan sayyoylar (2018-2022 yillar).**

Viloyat hududida Buxoroning eng qadimiy shahar-muzeyi joylashgan bo'lib, uning hududida 170 dan ortiq noyob tarix va me'morchilik yodgorliklari mavjud. Qadimda Buyuk Ipak yo'li yo'lida joylashgan Buxoro viloyati haqli ravishda savdo va hunarmandchilik markazi bo'lgan. Bu yerda Abduxoliq G'ijduvoniy, Najmiddin Kubro, Abu Ali ibn Sino kabi ko'plab taniqli olimlar tug'ilib ijod qilgan. Buxoro islomning yetti jahon muqaddas shaharlaridan biridir. O'rta asrlarda 350 dan ortiq